



## JO'ROVOZLIK IJROCHILIK SAN'ATI

G'ulomqodirova Elnora Dilshodjon qizi

*GulDU talabasi, Guliston. O'zbekiston.*

*Telefon: +998916867756*

*Ilmiy rahbar: Sultonov Abdurahim Abduraxmonovich*

Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlarning jo'rovoz bo'lib aytgan ashulalari mumtoz ashula ijrochiligi san'ati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Ular 1939-yilda xalk hashariga aylangan Katta Farg'ona kanali qurilishiga qatnashib, o'zlarining san'ati bilan xalkimiz orasida obro' topgan. O'sha davrda Ma'murjon Uzoqovga xalk hofizi unvoni berilgan. Ma'murjon Uzoqov nafaqat qo'shiq aytib, hattoki Mukimiy nomidagi musiqa va drama teatrida ko'plab bosh rollarni o'ynaganining guvoxi bo'lganmiz. Ustozi, hamnafasi Jo'raxon Sultonov bilan birga urush yillarida qator qo'shiklar yaratishgan. Jumladan: “Otga mindim”, “Mubtaloman naylayin” qo'shiklari “Vatan o'g'lonlari - frontga sovg'a” fil'mlari orqali o'z aksini topgan.

Aka – uka Shoqosim, Shoolim va Shoakbar Shojalilovlar, aka – uka Boboxon va Akmalxon So'fixonovlar, Ustoz san'atkorlar Orifxon Hotamov va Hakimjon Fayzievlar, Kamoliddin Rahimov va Turdali Saydaliev, aka-uka Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlarning jo'rovozlik ijrochilik maktablari an'anaviy xonandalik ijrochiligi yo'lini tanlagan barcha yoshlarimizga ibratdir.

Bugungi kunda jo'rovoz xonandalik ijro uslubida ko'plab xonandalar samarali ijod qilishmoqda. Vodiya bu uslubni “hamnafaslik” ham deb atashadi. Farg'onalik aka-uka Yahyojon va Muhsinjon Mo'minovlar, xorazmlik aka-uka G'ofur va G'ulom Eshchonovlar, hamda umidli yosh xonandalar Furqat Ashuraliev va Elmurod Ahmedovlarning ijrolarini jo'rovozlik ijro uslubida mumtoz ashula ijrochimizning muxlislari olqishiga sazovor bo'layotgan, munosib davomchilari deyishimiz mumkin.

Farg'ona vodiysida Katta ashula an'anaviy xonandalik ijro uslubi rivojlangan. Ustoz san'atkorlar Mamatbuva Sattorov, Madali Hofiz, Hamroqul qori To'raqulov, Erka qori Karimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqovlar bu ijro uslubida o'zbek mumtoz ashulchilik san'atida nom chiqarishgan. Mumtoz ashula ijrochiligining bu uslubi ham azaldan “Ustoz – shogird” an'analariga tayangan shaklda davom etib kelmoqda.

Farg'ona davlat universiteti professori, O'zbekiston xalq artisti Sultonali Mannopovning “Navobaxsh ohanglar” kitobidan quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz<sup>1</sup>.

“Farg'ona – Toshkent ijrochiligida o'ziga xos ijro maktabiga ega bo'lgan katta ashula mashhur ijro yo'li bo'lib, Farg'ona vodiysida, Toshkentda, Qozog'istonning Chimkent viloyatida ijro etiladi. Katta ashula ikki, uch ba'zan to'rt hofiz tomonidan aytiladi. Katta ashula “Likobi ashula”, “Patnisaki ashula” nomlari bilan yuritilib, o'ziga xos uslub va murakkab kuy tuzilishi bilan alohida ajralib turadi. Katta ashulaga xech qanday cholg'u asbobi jo'r bo'lmaydi, ijrochining qo'lida kichik bir patnis yoki likobcha bo'ladi. Patnis tovushni ma'lum darajada baland chiqaradi, tovushni bir tomonga yo'naltirib, usulni yo'qotmay, chertib turish uchun xizmat qiladi. Katta ashulani ijro etuvchining ovozi baland,



nafasi keng bo'lishi shart. Shuning uchun ham bu ashulani ko'proq mumtoz hofizlar ijro etishadi. Hamnafas hofizlarning ovozlari bir – biriga mos bo'lishi shart.

Katta ashula ijrochiligida hofizlarning soniga qarab so'zlar bo'linib ijro etiladi.<sup>1</sup> Ijrochi ikki kishi bo'lsa, birinchi hofiz ashulani boshlanishini ijro qiladi. U to'xtagach, ikkinchi hofiz davom ettiradi. Ashulaning o'rta avji(miyonxat) yana birinchi hofiz chekiga tushadi. Tushirishini birga aytishadi. So'ngra yuqori pardalardagi avj qismi bo'linib ijro etiladi. Tushirishda birgalikda ijro amalga oshiriladi. Agar hofizlar uch yoki to'rt kishidan iborat bo'lsa ham ana shu ijro qoidalariga amal qilinadi. Ushbu so'zlarning isboti uchun orqaga chekinib, kamina(Sultonali Mannopov)guvoh bo'lgan bir voqeani bayon qilmoqchiman.

1963 – yilning kuz oylari edi. Marg'ilon shahridagi to'yga ustoz Jo'raxon Sultonov qadr don do'sti, Xorazm san'atkorlarining ustoz avvali Hojixon Boltaev bilan birga kelgan edi. To'yni Jo'raxon ustoz ochib, birinchi navbatni mehmonlarga berdi. So'ngra to'yga kelgan san'atkorlarga bir-bir ashula navbati berildi. Bazm rosa avjiga chiqqanida, shinavandalardan biri Jo'raxon akadan “Patnisaki yovvoyi Chorgoh”ni aytib berishlarini iltimos qildi. Jo'raxon aka o'sha paytda 80 yoshni qoralab qolgan mashhur hofiz Mamatbuva Sattorovga qarab, - Mamatbuva aka “Patnisaki yovvoyi Chorgoh”ni ayta olamizmi? – deb murojaat qildi. - Albatta aytamiz faqat yana ikki kishi kerak, - dedi ustoz. Jo'raxon aka o'tirgan hofizlarga nazar tashlab, qarab chiqdi. Atrofdan hofizlarning xuddi o'quvchilarday qo'l ko'tarib, “Men aytay, ustoz” degan ovozlari eshitildi. Jo'raxon ustoz hofizlarni ko'zdan kechirdi-da Hojimurod, Nazarali qaerdasanlar, chiqish birga aytamiz- dedilar.

Ovozlari juda bir-biriga mos bo'lgan bu ikkala hofiz o'rinlaridan turishib o'rtaga chiqishdi. Jo'raxon ustoz bilib saralagan ekanlar, to'rtala hofiz ijrosida Mavlon Haziniy g'azaliga mansub “Kelo, dilimni so'rg'ali bir dilkusho keling”, - deb aytiladigan “Patnisaki yovvoyi Chorgoh” boshlandi. Ana ijro-yu, mana ijro. O'tirgan shinavandalar miq etmay o'tirishar, goh-gohida “oh” degan ovozlari eshitilib qolar edi. Ashula daromadini, miyonxatini bir-biriga monand holda qaytarishib ijro etishdi. Ashula avj pardasiga yetganda hofizlar katta ashula yo'llariga amal qilishgan holda avjini Jo'raxon aka bilan Mamatbuva ustozga oshirishdi. Ustozlar avjning har bir qatorini bo'lib aytishib, tushirishlarida to'rtala hofiz birga kuylashganda, bazmda o'tirganlar beixtiyor “uvv” – deb yuborishdi. Ijro tugagach shinavandalar uzoq olqishlab turishdi.

So'ngra hayajonda o'tirgan Hojixon ustoz o'rnidan turib, -“Patnisaki yovvoyi Chorgoh” ijrosiga baho berib, naqadar yuqori darajada bo'lganligini ta'riflab. Hofizlarga rahmat aytdilar. Kamdan-kam bo'ladigan bunday oliy ijro hozirgacha quloqlarim ostida jaranglaydi. Keyinchalik ustoz Mamasiddiq Madaliev rahbarligida hofizlar Ibrohimjon Is'hoqov, Musajon Oripov, Qobiljon Yusupov, Nazirjon Nazarovlar birgalikda kuylashgan, “Patnisaki yovvoyi Chorgoh” ham muvaffaqiyat bilan ijro etildi”.<sup>2</sup>

“Jamo bo'lib, ya'ni to'rt nafar hofizning bitta katta ashulani hamnafaslikda ijro etishi, kuylashi san'at olamiga ilk qadam qo'yayotgan yosh xonandalarga ibrat maktabi bo'lishi bilan bir vaqtda ularning musiqiy qobiliyatini, hamda ijrochilik

<sup>1</sup> I.C. Маннопов. “Навобахш оҳанглар” Тошкент. 2018 – йил. 113-118бетлар.

<sup>2</sup> .С. Маннопов. “Навобахш оҳанглар” Тошкент. 2018 – йил. 113-118 бетлар.



malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Mashg'ulotlarda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi va talabalar o'z ovoz ijrosini boshqarishga, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishga, hamda ular bilan bahamjihat jo'rovoqlik qilishga intiladi. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchi va talabalarning diqqat-e'tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan ashula va qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi”.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yu. Rajabiy " Maqomlar masalasiga doir " T., 2006
2. O. Ibrohimov " Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari " T.,2011
3. S. Mannopov. "Navobaxsh ohanglar " T., 2018